

**YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ
SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

PhD Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li

Annotatsiya: Keyingi yillarda dunyo mamlakatlari qisqa va uzoq muddatli budjet-soliq siyosatiga oid strategiyasini ishlab chiqishda soliq to'lovchilar tomonidan soliqdan qochish holatlari oldini olish va uni kamaytirishning turli xil mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor bermoqda. Shu bilan birga, sohalar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot- kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Аннотация: В последние годы страны мира при разработке краткосрочных и долгосрочных стратегий бюджетной и налоговой политики уделяют особое внимание внедрению различных механизмов по предупреждению и сокращению уклонения от уплаты налогов налогоплательщиками. При этом изучались территории, изучался зарубежный опыт, формулировались научно-практические выводы и предложения по его применению в нашей стране.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ рисков, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

Abstract: In recent years, countries around the world, when developing short- and long-term budget and tax policy strategies, have been paying special attention to the introduction of various mechanisms to prevent and reduce tax

evasion by taxpayers. At the same time, areas have been studied, foreign experience has been studied, and scientific and practical conclusions and proposals have been formulated on its application in our country.

Keywords: *tax revenues, risk analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.*

Kirish. Yer qa'ri boyliklarini asrab avaylash, ularning samarali foydalanishda nafaqat ma'muriy usullar, shuningdek, samarali iqtisodiy usullar sifatida soliq mexanizmidan foydalanish jahon amaliyotida keng ustuvorlik berib kelinmoqda. Bu borada yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq turi aksariyat davlatlarda undirilmoqdaki, bundan asosiy maqsad birinchidan, yer qa'ridan foydalanuvchilarni bu resurslardan samarali foydalanishga undash bo'lsa, ikkinchidan, davlat budjetini daromadlar bilan muntazam ta'minlab turishdan iboratdir. "Jahon bankining ma'lumotiga asosan, toza energiya texnologiyalariga oshib borayotgan talabni qondirish uchun grafit, litiy va kobalt singari minerallar 2050-yilga kelib deyarli 500 foizga oshishi mumkin". Demak, yer qa'rining foydali va yuqori qiymatli va naflilik resurslariga dunyoda talab oshmoqdaki, soliq siyosatining oldiga bu jarayonni tartiblash va rag'batlantirish borasida ustuvor vazifalar belgilanmoqda.

Yer qa'ri boyliklari turli tuman bo'lib, insoniyat iqtisodiy faoliyat yuritirish davomida undan o'z maqsadlarida foydalaniladi. Yer qa'ridagi texnogen boyliklar bir jihatdan (nodirligi nuqai nazaridan) milliy boylik hisoblanib, undan foydalanish uchun davlat tomonidan ma'lum bir to'lovlar joriy etiladi. Bu to'lovlar soliqlar va soliqsiz shaklda bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi qonuniga ko'ra, "yer qa'ri — yer qobig'ining tuproq qatlamidan quyida joylashgan, tuproq qatlami bo'lmaganda esa yer yuzasidan yoki suv ob'ektlari tubidan quyida joylashgan, geologik jihatdan o'rganish va o'zlashtirish mumkin bo'lgan chuqurlikkacha yastangan qismi"¹ bo'lsa, "keng tarqalgan foydali

¹ <https://lex.uz/acts/75847/> Ўзбекистон Республикасининг "Ер ости бойликлари тўғрисида"ги Қонуни. 2002 йил.

qazilmalar — tabiiy holicha yoki bir oz ishlov berib va tozalab ishlatiladigan foydali qazilmalar”²dir.

Yer qa’ridan iqtisodiy manfaatlar yo’lida foydalanish birinchidan, iqtisodiy zarurat bo’lsa, ikkinchidan, ular milliy manfaatlar yo’lida qayta ishlanadi, uchinchidan esa, ularni asrab avaylash va hamda tejamkorlik asosda foydalanisht uchun davlat asosiy ma’sul hisoblanadi, bu esa, davlatning bu ma’suliyatini ado etish ma’lum bir iqtisodiy vositalarni taqozo etadi. Bularning biri bu soliqlardir.

Davlat soliqlarni joriy etish orqali ikki xil maqsadni ko’zlaydi. Birinchisi bu o’zining faoliyatini uchun moliyaviy mablag’larga ega bo’lish uchun davlat budjetiga resurslarni jalb qilish, ikkinchidan esa, yer qa’ridan foydalanuvchilarning tejamkorlikka, ularni asrab avaylashni ta’minlash hamda ulardan jamiyat manfaatlaridan kelib chiqib foydalanishni ta’minlashdir.

Bu kabi yer qa’ri boyliklarni (foydali qazilmalarni) kelgusida asrab avaylash va uni iqtisodiy jihatdan himoyalash uchun uzoq muddatli va o’rta muddatli davlat dasturlarini tasdiqlab beradi. Bu dasturlarda milliy boylik hisoblangan ularni takror hosil qilish, mineral xom ashyo bazasini rivojlantirish masalalar qamrab olinadi.


Bundan tashqari, davlat o’zining qonunlari va qonunosti me’yoriy hujjatlari orqali milliy boylik hisoblangan iqtisodiyotning “mineral xom ashyoga bo’lgan talablarni hamda boshqa ehtiyojlarni qondirish uchun yer qa’ridan oqilona, kompleks foydalanilishini, yer qa’ri, atrof muhit muhofaza qilinishini, yer qa’ridan foydalanilayotganda ishlarning bexatar olib borilishini ta’minlashdan, shuningdek yer qa’ridan foydalanuvchilarning huquqlarini muhofaza qilishdan, shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish”³ maqsadida keng qamrovli tadbirlarni amalga oshiradi.

Yer qa’ridan samarali foydalanishda davlatning iqtisodiy dastaklari



² Ўша манба.

³ <https://lex.uz/acts/77871#78013>. “Ер ости бойликлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 2002 йил, 1-модда.



1-rasm. Yer qa'ridan samarali foydalanishda davlatning iqtisodiy dastaklari⁴

Davlatning funksiyasi bu yer qa'ri boyliklarini foydalanish, tasarruf etish va undan milliy manfaatlarda foydalanishni tartibga solishda bir qator iqtisodiy dastaklardan foydalaniladi. Bu kabi iqtisodiy dastaklar sirasiga 2-rasmda keltirilgan bo'lib, ularning har biri muya vaqtda va holatlarda qo'llaniladi. Ularning orasida soliq mexanizmi esa alohida o'rin tutadi.

Chunki, soliq mexanizmi orqali davlat yer qa'ridan samarali foydalanishga iqtisodiy majburlaydi, yer qa'ridan foydalanishda oladigan samarasi bilan to'laydigan soliqlar o'rtasidagi nisbatni bir tomondan bozor mexanizmi orqali tartiblasa, boshqa tomondan davlat tomonidan tartiblab boriladi.

Odatda yer qa'ridan foydalanganlik uchun davlatning maxsus soliqlari turli xil nomlanadi. Masalan bir davlatda foydali qazilmalar solig'i deb atalsa, boshqa bir davlatda yer qa'ri solig'i - foydali qazilmalarni qazib olish uchun olinadigan soliq deb nomlanadi va har xil stavkalar va hisoblash qoidalariga ega bo'ladi.

Masalan, Rossiyada yer qa'ri solig'i federal qonunlar bilan belgilanadi va neft, gaz, ko'mir va boshqa foydali qazilmalarni ishlab chiqarish uchun olinadi.

⁴ Muallif tomonidan tuzilgan.

Boshqa mamlakatlarda ham shunga o'xshash soliqlar mavjud bo'lib, ular ishlab chiqarish turi va hajmiga qarab farq qiladi.

Yer qa'riga soliq bo'yicha hisob-kitoblar mamlakatdan mamlakatga juda katta farq qiladi va ko'plab omillarga, jumladan qazib olinadigan resurs turiga, mintaqaviy qonunlar va qoidalarga va davlat soliq siyosatiga bog'liq bo'ladi.

1-jadval.

Navoiy kon metallurgiya kombinati (NKMK)ning qazilma boyliklaridan olgan daromadlari tahlili⁵

Ko'rsatkichlar	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Ishlab chiqarish hajmi: (tonna)	3 611,7	3 629,0	102,7	111,8	114,9
oltin	79,6	82,8	82,41	91,351	93,293
kumush	20,1	20,2	20,3	20,4	21,6
uran	3 512,0	3526,0	0,0	0,0	0,0
palladiy	0,008	0,008	0,008	0,008	0,0
Ishlab chiqarilgan mahsulotning narxi:	x	x	x	x	x
oltin, tr. unsiya / AQSh dollari	1 772,2	1 799,6	1 834,8	1 946,8	1 950,0
kumush, kg / AQSh dollari	659,5	809,1	699,2	643,0	643,0
uran, funt / AQSh dollari	29,6	32,2	x	x	x
palladiy, kg / AQSh dollari	70 520,0	77 080,0	67 760,0	71 000,0	71 000,0

⁵ Navoiy kon metallurgiya kombinati (NKMK)ning moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Respublikamizda eng yirik yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilaridan biri hisoblangan Navoiy kon metallurgiya kombinati (NKMK)ning qazilma boyliklaridan olgan daromadlari tahliliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu korxonaning oltin ishlab chiqarish hajmi tahlil qilinayotgan yillar kesimida birgina 2022-yilni hisobga olmasak (avvalgi yilga nisbatan 0,4 tonnaga kamaygan) yillar davomida oshib borgan, shu bilan birgalikda uning eksporti ham oshib borgan. Shu bilan uning narxi dinamikasiga qaraydigan bo'lsak, 2020-yilda uning jahondagi bozor narxi bir unsiya / AQSh dollari 1 772,2 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib, 1950,0 dollorni tashkil qilgan va yillar davomida oshib borgan. Ammo, kumushning narxida 2023 va 2024-yillarda 2022-yilga nisbatan bozor narxi kamaygan, ya'ni, bir birligi narxi (699,2-6430 56,2 dollorga kamaygan. Demak, respublikamizda Navoiy kon metallurgiya kombinatining oltinni ishlab chiqarish va uning dunyo bozoridagi narxidagi o'zgarishlar oxir oqibatda soliq tushumlarining ko'payishiga ta'siri tabiiydir.

Xulosa va takliflar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tabiiy boyliklardan samarali foydalanishning iqtisodiy dastagi sifatida iqtisodiyotni tartiblashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi bilan bir qatorda ushbu soliq davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda o'rtacha 9-10 foiz atrofida soliq tushumlarini ta'minlab turibdi. Biroq, shuni ham ta'kidlash kerakki, yer qa'ridan foydalanish va iste'mol etishga ixtisoslashgan korxonalar esa, yirik soliq to'lovchi sifatida mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va davlat budjeti daromadlaridagi ulushi jihatdan yuqori ulushlarni egallaydi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, resurslardan samarali foydalanishni soliqqa tortish murakkab iqtisodiy jarayonlarga bog'lanib ketadi, o'z navbatida bu borada ma'lum bir o'z yechimini kutayotgan ilmiy-amaliy muammolar ham mavjud bo'lishi tabiiydir.

ADABIYOTLAR:

Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси-Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.

I.Yu.Zoxidov “Yer qa’ridan samarali foydalanishda soliq mexanizmining rolini oshirish masalalari” I.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati T.: 2025. -18 6.